

Lekin yana bir holat bor. Ya'ni kompaniya haqiqatan ham dividend to'lay olmasa nima qilishi kerak va qanday yo'l tutishi kerak. Shu muammo ham ba'zi bir kompaniyalarda mavjuddir.

Agar kompaniya dividendlarni to'lay olmasa, vaziyatni hal qilish uchun bir nechta ketma ketliklarni qilishi kerak:

O'zining moliyaviy holatini ko'rib chiqinsh: Kompaniya nima uchun dividendlar to'lay olmasligini aniqlash uchun moliyaviy holatini ko'rib chiqishi kerak. Bu uning daromadlarini aktsiyadorlarga taqsimlash qobiliyatiga ta'sir qiladigan har qanday muammolarni aniqlash uchun uning pul oqimi, daromadlari, xarajatlari va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Aktsiyadorlar bilan muloqot qilish: Kompaniya nega dividendlar to'lay olmasligini tushuntirish va moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot berish uchun aktsiyadorlari bilan bog'lanishi kerak. Bu umidlarni boshqarishga va investor ishonchini saqlab qolishga yordam beradi.

Dividend qaytarishning muqobil shakllarini ko'rib chiqish: Agar kompaniya dividendlarni naqd pulda to'lay olmasa, u aktsiyalarni qaytarib olish yoki kapitalni qaytarishning boshqa shakllari kabi muqobil daromad shakllarini ko'rib chiqishi mumkin. Bu kompaniyaga foydani naqd dividendlar to'lamasdan aktsiyadorlarga taqsimlash usulini taqdim etishi mumkin.

Dividend siyosatini ko'rib chiqish va to'g'rilash: Kompaniya o'zining joriy moliyaviy holatini aks ettirish uchun dividend siyosatini ko'rib chiqishi va tuzatishi kerak bo'lishi mumkin. Bu dividendlarni to'lashni qisqartirishni yoki to'lovlar vaqtini yoki chastotasini o'zgartirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar kompaniya dividendlar to'lay olmasa, u o'zining moliyaviy holatini ko'rib chiqishi, aktsiyadorlar bilan muloqot qilishi, daromad olishning muqobil shakllarini ko'rib chiqishi, dividend siyosatini o'zgartirishi va kerak bo'lganda mutaxassislardan maslahat olishi kerak. Ushbu qadamlarni qo'llash orqali kompaniya dividendlarni to'lash bilan bog'liq muammolarni hal qilish va investorlarning ishonchini saqlab qolish uchun ishlashi mumkin

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dividendlar va dividend siyosati | A.A. Temirov
2. Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar | N.G'.Karimov A.S.Axmedov
3. Maqolalar
4. Wikipedia
5. Google
6. Yandex

# GLOBALLASHUV JARAYONIDA KORPORATIV BOSHQARUV TAMOYILLARI

*Sodikov Zokir Rustamovich*  
*i.f.n., O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti*  
*a\_mail:zokirsodiqovl@gmail.com*

## Annotatsiya

Global iqtisodiyotning rivojlanish korporativ boshqaruvning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Bu maqolada korporativ boshqaruvning jahon amaliyotidagi tamoyillari va uning o'ziga xos jihatlari ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil metodlari orqali o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv kengashi, audit, mustaqil auditor, savdo aylanmasi, transmilliy kompaniyalar, aksiyadorlar, shaffof, kompaniya strategiyasi, risk, aktivlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.

Jahonda texnologiyaning jadal rivojlanishi, milliy iqtisodiyotlarning o'zaro integratsiyalashuvining kuchayishi va transmilliy kompaniyalarning xalqaro bozordagi rolining ortib borishi XXI asrning eng muhim hodisalaridan biri sifatida yangidan shakllanishni va globallashuvni keltirib chiqarmoqda. Bugungi globallashuv erishgan muvaffaqiyat hayratlanarli darajaga chiqdi. 1970-yillarda jahon erkin savdosidagi aholi jami dunyo aholisining 1/3 qismini tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 80% dan oshgan. Oxirgi yillarda xalqaro va chegaralararo pul oqimlari miqdori kundalik 1,5 trillion AQSh dollariga yetdi. Bundan tashqari, jahon savdosi so'nggi o'n yillikda o'rtacha 6-7% ga o'sib bormoqda.

Globallashuvning eng xarakterli xususiyatlaridan biri bu transmilliy kompaniyalarga asoslanishi va tayanishi hisoblanadi. Zero, 1970-yillarda transmilliy kompaniyalar soni bir necha yuzdan oshmagan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 50 mingdan oshganligi tahmin qilinadi. Bundan tashqari, dunyodagi 200 ta yirik kompaniyaning global miqyosdagi savdo aylanmasi butun dunyodagi iqtisodiy faoliyatning 1/4 qismidan ko'proqni tashkil qiladi. Bu holatning yana bir yorqin misoli shundan iboratki, General Motorsning savdo aylanmasi Daniya yalpi ichki mahsulotidan, Toyotoning savdo aylanmasi esa Norvegiya yalpi ichki mahsulotidan ko'p bo'lmoqda.

Ko'p millatli kompaniyalar globallashuvning eng muhim belgilovchilari sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, globallashuv tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng muhim vositasi sifatida ko'riladi. Bu kompaniyalar jahon iqtisodiyoti va ishlab chiqarishini belgilab berishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Transmilliy kompaniyalar butun dunyoda ishlab chiqarish faoliyatini ommalashtirib, mehnat bozorlari va ularning hajmini kengaytirmoqda. Ko'p millatli kompaniyalar o'zlarining yuritayotgan ishlab chiqarish siyosati bilan mamlakatlarning umumiy daromadlariga va uning taqsimlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ko'pmillatli kompaniyalar texnologik o'zgarishlar tufayli juda tez harakat qila olishi, bu kompaniyalarning moliyaviy bozorlarda ham samarali pozitsiyaga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Aslida, Korporativ boshqaruv kontsepsiyasi bilan maydonga chiqqan kompaniyalarda “yaxshi” boshqaruv fenomeni yoki voqeasi, Kompaniya rahbarining to'g'ri qarorlar qabul qila olishi, demokratik ma'noda ishtirok etish kanallarining ochiqligi, kompaniya menejerlari tomonidan qabul qilingan qarorlardan aksiyadorlar boshchiligida manfaatlariga salbiy ta'sir qiladigan har bir kishi boshqaruvchilarni nazorat va monitoring qila olishlari, kompaniya boshqaruvi o'zboshimchalikdan uzoq, qonun va qoidalarga rioya qilinib, shaffof shaklda boshqarilishi kerakligi talqin qilinadi. Korporativ boshqaruv makroiqtisodiy siyosatdan tortib to mahsulot bozorlaridagi raqobat darajasigacha bo'lgan kompaniyalar faoliyatlarini tartibga soluvchi keng-ko'lamli iqtisodiy munosabatlar doirasida namoyon bo'lmoqda.

Korporativ boshqaruv, kompaniyalarning bozorlar tomonidan barqaror tarzda moliyalashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Zero, Kompaniyalarning korporativ boshqaruv tamoyillarini qabul qilishlari bilan ularning investitsiya perfonmanslari o'rtasidagi bog'liqlik ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Bunda muhim bo'lgan jihat Korporativ boshqaruv amaliyotlari bilan investitsiyalarning xalqaro ahamiyati o'rtasidagi bog'liqlikdan iborat. Xalqaro miqyosda sarmoyaning harakatchanligi yaxshi boshqariladigan kompaniyalarning juda ham katta hajmdagi investitsion (hovuzi) fond hisobidan moliyalashtirish manbalariga erishishlariga imkoniyat yaratmoqda. Muhokama mavzusi bo'lgan kompaniyalarning global iqtisodiyotda baynalmilallashuvi bilan bir qatorda bu qadar ahamiyat kasb etishlari va o'zaro bir-birlariga nisbatan bog'liqliklarining ortib borishi, ularning tuzilishlari va ma'muriyatlari borasida yanada ko'proq e'tibor qaratilishini kun tartibiga chiqargan yoki dolzarblashtirgan.

Milliy kompaniyalar va transmilliy kompaniyalarning bir-birlari bilan bo'lgan yaqin aloqalari va bog'liqliklari, ko'pmillatli yoki milliy bo'lgan barcha kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv nomi ostida ba'zi tamoyillarning aniqlashtirilishi borasida turli-tuman xalqaro tashabbuslarni yoki faoliyatlarni boshlash majburiyatini keltirib chiqargan. Xususan, 1997 yildagi Janubi-Sharqiy Osiyo inqirozidan keyin turli xalqaro tashkilotlar, Korporativ boshqaruv nomi ostida kompaniyalarni yaxshiroq boshqarilishiga imkon beruvchi tamoyillar borasida tadqiqotlar olib borgan va kompaniyalarga joriy etish mumkin bo'lgan umumiy yoki mushtarak tamoyillar ishlab chiqish harakatlari boshlanganlar. Ushbu tadqiqotlardan biri Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshirildi. Xususan, OECD Vazirlar Kengashi uning Kotibiyatidan 1998 yilda korporativ boshqaruv bo'yicha xabardorlikning ortishi munosabati bilan ushbu mavzu bo'yicha bir qator standartlar va boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqish zarurligini qayd qilgan. Shundan so'ng, OECD tomonidan "Korporativ boshqaruv tamoyillari" tayyorlandi va 1999 yilda OECD Vazirlar Kengashiga taqdim etilgan. OECD tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda tamoyillar beshta yo'nalishni qamrab olgan bo'lib, jumladan:

Korporativ boshqaruvda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish muhim hisoblanadi. Aksiyadorlarning asosiy huquqlari - bu mulkni ro'yxatdan o'tkazish usullarini kafolatlash, aksiyalarni olis va o'tkazish (berish), to'g'risida o'z vaqtida va muntazam ravishda kompaniya faoliyati haqida shaffof ma'lumotlarni olish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish va ovoz berish, boshqaruv kengashi a'zolarini saylash va kompaniyaning foydalaridan ulush olish kabi huquqlarni qamrab

olmoqda. Aksiyadorlar kompaniya bilan bog'liq ravishda, ustavda yoki ta'sis shartnomasida yoki kompaniyaning boshqa shunday asosiy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar, qo'shimcha aksiyalar chiqarish vakolati va kompaniyaning savdosi bilan natijalanadigan favqulotta operatsiyalar kabi, kompaniya bilan bog'liq fundamental o'zgarishlarga tegishli bo'lgan qarorlarda ishtirok etish va bu qarorlar borasida yetarlicha ma'lumot olish huquqiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, aksiyadorlar, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida samarali yoki ta'sirchan tarzda qatnashish va ovoz berish usullari bilan birgalikda ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lishi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tartibga soluvchi qoidalar to'g'risida xabardor bo'lishi kerak. Ba'zi aksiyadorlarning o'z ulushlari bilan nomutanosib ravishda muayyan nazorat qilishlariga imkoniyat beradigan sarmoya tarkiblari va tartibotlari oshkor etilishi kerak. Korporativ nazorat bilan tegishli bozorlarning samarali va shaffof ishlashiga imkoniyat ta'minlab berish kerak. Korporativ investorlar bilan birga aksiyadorlar, o'zining ovoz berish huquqlarini amalga oshirishda xarajatlarini va foydalarini ham hisobga olishlari zarur.

Aksiyadorlarga nisbatan adolatli munosabat bo'lishi kerak. Korporativ boshqaruv ozchilik va xorijiy aksiyadorlar bilan birga barcha aksiyadorlarga teng munosabatda bo'linishini kafolatlashi lozim. Barcha aksiyadorlar huquqlari buzilganligi uchun tegishli kompensatsiya yoki qoplama olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bir xil turdagi aksiyadorlarga teng munosabatda bo'lish talab etiladi. Ichki ma'lumotlarni olish yo'li bilan amalga oshiriladigan noqonuniy savdo va noqonuniy shaxsiy bitimlar taqiqlanishi zarur. Menejerlar va boshqaruv kengashi a'zolari, kompaniyaga ta'sir qiladigan operatsiya va mavzular bilan bog'liq moddiy manfaatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday jarayonlarni oshkor qilishlari talab etiladi.

Korporativ boshqaruvda bevosita manfaatdor tomonlarning roli muhim hisoblanadi. Korporativ boshqaruv to'g'ridan-to'g'ri manfaatdor tomonlarning qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarini tan olishi, qiymat va yangi ish o'rinlarini yaratishda kompaniyalar bilan bevosita manfaatdorlar o'rtasida samarali hamkorlikni va moliyaviy jihatdan kuchli korxonalarni rag'batlantirishi kerak. Korporativ boshqaruv bevosita manfaatdor tomonlarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari hurmat qilinishini kafolatlashi zarur. To'g'ridan-to'g'ri manfaat sohibi bo'lgan toifalarning manfaatlari qonun bilan himoyalangan taqdirda, barcha manfaatdor tomonlar o'z huquqlarining har qanday buzilishi uchun tegishli kompensatsiya yoki qoplama olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Korporativ boshqaruv manfaatdor tomonlarning bevosita ishtiroki nuqtayi-nazaridan voqealarni va performansini rivojlantiruvchi mexanizmlarga ruxsat berishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri manfaatdor tomonlar kompaniyani boshqarish jarayonida ishtirok etgan vaziyatlarda, ular zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kompaniy faoliyatini jamiyatga oshkor qilish va shaffoflikni ta'minlash ustuvor hisoblanadi. Korporativ boshqaruv, moliyaviy holat, performans va faoliyat, mulk va boshqaruvni ham qamrab olgan holda kompaniya bilan bog'liq barcha moddiy masalalarni to'g'ri va o'z vaqtida oshkor qilinishini kafolatlashi zarur. Oshkora qilinadigan ma'lumotlar, kompaniyaning moliyaviy va operatsion holati, korxonaning foyda va zararlari hisobi, kompaniyaning maqsadlari, ko'pchilikning ulushlarga egaligi

va ovoz berish huquqlari, boshqaruv kengashi a'zolari, asosiy rahbarlar va ularga to'lanadigan to'lov hamda ish haqi tizimlari, taxmin qilinishi mumkin bo'lgan moddiy risk omillari, ishlaydigan ishchi-xodimlar va boshqa bevosita manfaatdor bo'lgan kishilar bilan bog'liq moddiy masalalar, boshqaruv tuzilmasi va siyosatlarini kabi axborotlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Axborot tayyorlanishi, nazorat qilinishi va sifatli buxgalteriya hisobi standartlariga, moliyaviy va nomoliyaviy bayon va auditga muvofiq oshkor etilishi zarur. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish usullari borasida tashqaridan va obyektiv ishonchni hosil qilish uchun yillik audit mustaqil auditor tomonidan o'tkazilishi zarur bo'ladi. Axborotni tarqatish kanallari tegishli ma'lumotlarga foydalanuvchilar tomonidan adolatli tarzda, o'z vaqtida va kam xarajat bilan qo'lga kiritilishini ta'minlash lozim.

Korporativ boshqaruv, kompaniyaning strategik rahbarligini, boshqaruv kengashi tomonidan boshqaruvning o'z vaqtida samarali nazoratini, boshqaruv kengashining kompaniya va uning aksiyadorlar oldida hisob berish majburiyatini kafolatlashi talab etiladi. Boshqaruv kengashi a'zolari to'liq ma'lumotga ega bo'lgan holda, yaxshi niyat, zaruriy diqqat-e'tibor bilan kompaniya va aksiyadorlarning eng maqbul manfaatlari borasida harakat qilishlari kerak. Kengash qarorlari turli aksiyadorlar guruhlariga turlicha ta'sir ko'rsatsa, kengash barcha aksiyadorlarga adolatli munosabatda bo'lishi zarur. Boshqaruv kengashi amaldagi qonunlarga muvofiqligini kafolatlashi va to'g'ridan tegishli manfaat egalari manfaatlarini hisobga olishi kerak.

Ayni paytda, Boshqaruv kengashi, xususan, boshqaruvdan mustaqil ravishda korxonalar operatsiyalarida obyektiv muhokama qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Majburiyatlarini bajarish uchun Boshqaruv kengashi a'zolari to'g'ri, zarur va asosli ma'lumotlarga o'z vaqtida ega bo'lishlari muhim hisoblanadi.

Boshqaruv kengashi o'ziga xos muhim funktsiyalarni bajaradi. Xususan, kompaniya strategiyasini, asosiy harakat rejalarini, risk siyosatlarini, yillik byudjetlarni va korxonalar rejalarini yo'naltirish va ko'rib chiqish, samaradorlik maqsadlarini aniqlash, ijroat va korxonalar performansini o'z vaqtida nazorat qilish va yirik sarmoya xarajatlarini, aktivlarni sotib olish va sotishni boshqarish, asosiy rahbarlarni saralash va tanlash, ish haqlarini to'lash, nazorat qilish, zaruriyat bo'lgan vaziyatda o'zgartirish va boshqaruvchi xodimlarning silliq shaklda almashuvi rejalarini nazorat qilish, boshqaruv darajasini, kengash a'zolariga qilingan to'lov va ish haqi tizimini qayta ko'rib chiqish hamda rasmiy va shaffof tayinlov jarayonini amalga oshirish, kompaniya aktivlarini noto'g'ri foydalanishdan tortib tegishli tomonlarning operatsiyalarida suiiste'mol qilishlarigacha bo'lgan holatlarni qamrab olish bilan bir qatorda, boshqaruv, boshqaruv kengashi a'zolari va aksiyadorlarning ehtimolli manfaat to'qnashuvlarini o'z vaqtida nazorat qilish va boshqarish kerak bo'ladi. Shuningdek, kompaniyaning mustaqil auditorlardan tortib, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimlarini ishonch asosida kafolatlash va xususan, risk nazorati, moliyaviy nazorat va qonunlarga rioya qilish nuqtayi nazaridan maqbul monitoring tizimlarining ishlashini ta'minlash, Boshqaruv kengashi amal qiladigan boshqaruv usullarining muvofiqligini nazorat qilish va zaruriyat bo'lganda ularda o'zgartirishlar qilish, ommaga ma'lumotlar berish va muloqot hamda aloqa jarayonlarini nazorat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni (28.01.2022-yil, PF-60-son).
2. Elmirzayev S.E. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 416 b.
3. OECD Corporate Governance Principles, OECD Publication Center, Paris, 1999.

## ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

*Elyorbek Baxtiyor o‘g‘li Egamberdiyev*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

*[Elyor\\_10397@mail.ru](mailto:Elyor_10397@mail.ru)*

*Ilmiy rahbar: i.f.n., dot. A.A. Temirov*

### Annotatsiya

Ichki audit xizmatini tashkil etish aksiyadorlik jamiyatlari uchun zarur bo‘lib, ularning faoliyati samarali bo‘lishiga va raqobatbardoshligi oshishiga hissa qo‘shadi. Ichki audit xizmati korxonada faoliyatida kutilayotgan xavf-xatarlarni oldindan aniqlash, ularni bartaraf etish yoki yengillashtirishda katta yordam beradi. Ushbu tezisda O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit xizmatini tashkil etish va uning faoliyati samaradorligini baholashga oid masalalar bilan tanishib chiqamiz chiqamiz.

***Kalit so‘zlar:*** audit, ichki audit, aksiyadorlik jamiyatlar, tijorat banklari, buxgalteriya balansi, xalqaro standartlar, samaradorlik, moliyaviy natijalar.

Raqobat muhitida ichki audit xizmati faoliyatini sifatli va samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Yurtimizda hozirgi kunda buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha bir necha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946-sonli Qarori va 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qarorlari negizida “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrir ostida qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 5-maydagi “Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 280-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorlarda ichki audit xizmatini ham xalqaro standartlar muvofiq tashkil etishga urg‘u berilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida ichki audit xizmati faoliyatini samarali tashkil etishning bir omili sifatida xizmat qiladi.

Ichki audit – korxonaning alohida tarkibiy bo‘linmasi sifatida faoliyat yurituvchi xizmat bo‘lib, uning vazifasi ijroiya organi va korxonaning tarkibiy bo‘linmalari ishini nazorat qilish va baholash, ularning qonun hujjatlari, ta‘sis va ichki hujjatlarga rioya etilishini tekshirish va monitoring qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda